

## O‘zbekistondagi ekologik muammolarning dolzarbligi

**Abdumutaliyeva Munavvarxon Numonjon qizi**  
**Asqarova Gulsanamxon Mirzaabdulla qizi**  
**Andijon Davlat Pedagogika instituti**  
**Aniq fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi**  
**2-bosqich 202-guruh talabalari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistondagi muhim ekologik muammo bu Orol dengizini qurishidir. Bu holat natijasida dengiz o‘rni cho‘lga aylangan va atrof muhitda turli xil zararli tuzlarning yoy ilishiga olib kelmoqda. Bu muammoni yechimi sifatida bizning akselerator laboratoriyamiz cho‘l o‘rniga yashil hudud barpo etmoqda va har bir inson bu loyihaga osonlik bilan o‘z hissasini qo‘sha oladi.

**Аннотация:** в данной статье важной экологической проблемой Узбекистана является высыхание Аральского моря. В результате такой ситуации море превратилось в пустыню и стало причиной распространения различных вредных солей в окружающую среду. В качестве решения этой проблемы наша лаборатория-ускоритель создает вместо пустыни зеленую зону, и каждый может легко внести свой вклад в этот проект.

**Abstract:** in this article, an important environmental problem in Uzbekistan is the drying up of the Aral Sea. As a result of this situation, the sea has turned into a desert and causes the spread of various harmful salts in the environment. As a solution to this problem, our accelerator lab is building a green area instead of a desert, and everyone can easily contribute to this project.

**Kalit so‘zlar:** Ekologiya , dolzarb , muammo , sanoat , chiqindi , orol dengizi, atmosfera, muhofaza , akselerator , laboratoriya , cho‘l , mintaqa.

**Ключевые слова:** Экология, актуальная, проблема, промышленность, отходы, Аральское море, атмосфера, защита, ускоритель, лаборатория, пустыня, регион.

**Key words:** Ecology, topical, problem, industry, waste, Aral Sea, atmosphere, protection, accelerator, laboratory, desert, region.

O‘zbekiston iqlimi keskin quruqlashib bormoqda. Kuzda yomg‘ir, qishda esa qor yog‘ishi sezilarli darajada kamaydi. Yoz oylarida anomal issiq harorat kuzatilmoqda, Yil davomida yurtimizga kirib keladigan sovuq havo oqimi 2

barobargacha qisqardi. Bularning barchasi global iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, havo va tuproqda suv tanqisligini kuchaytirib, mintaqamizga ham jiddiy ta'sir qilayotganini anglatadi. Cho'llanish – yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holga kelish jarayoni. U qashshoqlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Bunda qurg'oqchil iqlimli o'lkalarda ekologik tizimlar buziladi, o'simlik va hayvonot olami populyatsiyasiga salbiy ta'sir kuchayadi. Dunyoni tabiiy-iqtisodiy inqirozga olib keladi. Ana shunday cho'llangan suvli hududlarning 87 foizi oxirgi 300 yil ichida yaroqsiz holga kelgan. Yana ham yaqin tarixga nazar tashlasak, cho'llanishning 54 foizi oxirgi 100 yilga to'g'ri keladi. Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrikada bu jarayon hamon davom etmoqda. Shuningdek, dunyo aholisining o'sib borishi – cho'llanishning asosiy sabablaridan biri. Chunki odamlar soni ko'paygani sari oziq-ovqat va moddiy boyliklarga talab ham oshadi. Bu esa yerdan ko'proq hosil olish kerakligini anglatadi. Natijada dehqonchilik maydonlari ayovsiz ishlatilib, yaroqsiz holga keladi. Sho'rlanish, qurg'oqchilik kabi boshqa ekologik muammolarning eng oxirgi natijasi cho'llanish hisoblanadi. Shu bois ularni nisbatan tezroq bartaraf etsa bo'ladi. Cho'llanishni to'xtatish esa birmuncha qiyin, chunki bunday hududda yerlar unumdorligini yo'qotadi. Hech qanday maqsadda foydalanib bo'lmaydi, ya'ni qishloq xo'jaligi, chorvachilik maqsadida foydalanish uchun yaroqsiz bo'ladi. Bunday hududlarda faqat yantoq, saksovulga o'xshagan o'simliklar o'sadi, lekin iste'molga yaroqli mahsulot olib bo'lmaydi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududining 70 foizi cho'llangan. Cho'llanishga olib keladigan yana bir omil – qishloq xo'jaligining oqilona tashkil qilinmaganidir. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi chorva mollarining noto'g'ri o'tlatilishi ham bunga sabab bo'ladi. Chorva mollarini o'tlatish jarayonida hayvonlar o'simliklarni ildizi bilan yeb yuboradi. Bu esa degredatsiya jarayonini yanada tezlashtiradi.

Orol dengizining hozirgi holati. Dengiz cho'l mintaqasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'langan. O'tgan asrning boshlaridan suv sathi pasaya boshlangan. Masalan, 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga daryolardan yog'in bilan birga bir yilda, o'rtacha 65 kub, km suv kelib turgan; suv yuzasidan esa 66,10 kub, km suv bug'langan. Shunday qilib, har yili dengiz 1 kub km 50 yil davomida esa 50 kub, km suvni yo'qotgan. Suv sathi ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug'orishga ishlatilishi tufayli keskin kamaya boshlagan. O'tgan 40 yildan ko'proq vaqt davomida Orol



dengizining maydoni deyarli 4-marta, suv sathi 1,8-marta, undagi suv hajmi 9-martaga yaqin kamaydi. Dengiz suvining sho‘rlanishi 9-10 g/l dan 70-84 g/l gacha ortdi. Hozirgi kunda dengiz chuqurligining kamayishi yiliga 80-110 sm ni tashkil etadi. O‘tgan 40 yil mobaynida qirg‘oq chizig‘i 80–100 km pasaygan. Buning oqibatida 4,5 mln gektardan oshiqroq dengiz tubi ochilib qoldi. Hozirgi kunda Orol dengizi uch qismga bo‘linib ketgan. Uning sayoz kichik shimoliy qismining suvi kuchsiz minerallasgan (8-13 g/l), birmuncha kattaroq sayoz sharqiy qismi ancha kuchli sho‘rlangan (68-72 g/l).

Orol bo‘yi hududining ekologik muammolari. Orol dengizi asosan Amudaryo va Sirdaryodan suv oladi. So‘ngi yillarda Sirdaryo suvi suv omborlarini to‘ldirishga va sug‘orishga foydalanilishi tufayli Orol dengiziga etib bormaydigan bo‘ldi. Amudaryo va uning irmoqlarida suv omborlari qurilib, ko‘p miqdordagi suv kanallar orqali ekin dalalariga oqiza boshlandi. Buning oqibatida Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo Amudaryoga etib bormaydigan bo‘lib qoldi. Hozirgi davrda Amudaryodan suv oladigan kanallarning umumiy uzunligi 170 ming km dan, suv omborlari soni 50 tadan oshib ketdi. Ularning suv sig‘imi 16-17 mld kubokilometrni tashkil etadi. Suv zahiralardan noo‘rin foydalanish – Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimlaridagi hududlarda sizot suvlarining ko‘tarilib, tuproqdagi namlik bug‘lanishining ko‘chayishi va buning oqibatida tuproqlarning sho‘rlanishining ortishiga olib keldi. Orol bo‘yi hududlarida esa sizot suvlari yuzasi pasayib, er yuzasi sho‘rhok tuproq bilan qoplana boshladi. Orol dengizi suv sathining pasayishi bilan qirg‘oq chizig‘i 100 km dan ortiqroq orqaga chekindi. Dengiz tubi o‘rnida 4 mln gektardan ortiq maydonni egallagan yosh Orolqum cho‘li paydo bo‘ldi. Ana shunday qilib, Amudaryo va Sirdaryo suvidan noo‘rin foydalanish 20 asr oxirida 3 mln dan ko‘proq aholi yashaydigan hududda „Orol fojiasi“ deb atalgan global ekologik halokatni paydo qildi. Orol dengizi o‘rnida paydo bo‘lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplangan. Shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko‘tarilib, uzoq masofalarga tarqaladi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi sug‘oriladigan maydonlarning har gektariga bir yil davomida 250 kg, ayrim hududlarda 500 kg gacha tuzli chang yog‘iladi. Qurigan dengiz tubidan bir yil davomida 15 mln dan 75 mln tonnagacha chang ko‘tarilishi mumkin. Tuzli chang to‘fonlarning kengligi 40 km ga; uzunligi 400 km ga etadi. Tuzli chang Orolqumdan o‘nlab, hatto yuzlab km masofaga tarqalib, tabiiy o‘tloqlar, vohalardagi ekinlar, bog‘lar, shaharlar va

qishloqlar ustiga yog‘iladi. Orol changi hatto Tyanshan va Pomir tog‘lari cho‘qqilaridagi muzliklarga ham etib borib, u yerdagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborgan. Cho‘llanish va sho‘rlanishning tezlashuvi oqibatida so‘nggi yillarda 50 ming gektarga yaqin ekin maydoni qishloq xo‘jaligida foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qoldi. Noqulay ekologik vaziyat qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini va chorva mahsulotlari etishtirishning keskin kamayishiga olib keldi. Orol dengizining quriy boshlashi iqlimga ham ta‘sir ko‘rsatdi, Iqlim yanada kontinentallashib, qishqi harorat o‘rtacha ikki gradusga pasaydi, yozgi harorat esa ikki gradusga ko‘tarildi. Buning natijasida sovuq kunlar erta tushib, ekinlarning pishib etilishi kechika boshladi. Orol bo‘yi hududida vujudga kelgan ekologik tanglik aholi salomatligiga ham ta‘sir ko‘rsata boshladi. Aholi o‘rtasida yurak-qon tomir, oshqozon-ichak, nafas olish organlari kasalliklari (o‘pka sili, astma, bronxit) ko‘paydi. Hududda kam-qonlik kasalligi 60 yillarga nisbatan deyarlik 20-marta oshganligi kuzatilgan. Ekologik tanglik Orol bo‘yi tabiati, o‘simliklar va hayvonot dunyosiga ham katta ziyon etkazdi. Suv zahiralarning kamayishi va sho‘rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo‘ladigan o‘simliklar turi va sifati kamayib, o‘tloqlar maydoni deyarlik uch martaga qisqardi. Amudaryo va Sirdaryo suvining kamayishi, suv toshqinlarining bo‘lmasligi, daryolarning suv bosadigan qirg‘oqlarida yastanib yotadigan to‘qaylardagi xilma-xil o‘simliklarning qurib, yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi. Ularning o‘rnini qurg‘oqchilikka chidamli yulg‘un, shuvoq kabi cho‘l o‘simliklari egallamoqda. To‘qaylarning yo‘qolishi ko‘plab o‘simlik va hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo‘ldi. O‘tgan 20 asrning ikkinchi yarmida Amudaryoning quyi qismidagi to‘qaylarning buzilishi bilan bu joylardan yo‘lbars, buxoro bug‘usi yo‘qolib ketdi. Janubiy Orol bo‘yidagi 60 dan ortiq qushlardan 10 ga yaqin turi yo‘qolib borayotgani va 42 turidan ortig‘i „noyob“ turga aylanayotgani haqiqatdir. Sho‘rlanishning keskin ortishi tufayli Orol dengizi tobora o‘lik dengizga aylanib bormoqda. Orol dengizi va Orol bo‘yida suv havzalarda tarqalgan 28 tur baliqlardan 12 turi, jumladan Amudaryo kurakburun, Orol mo‘ylovdori yo‘qolib ketayotgan va noyob turlarga kiritilgan.

Global ekologik muammolar yechimi. Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me‘yorida ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo‘lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o‘zgarishi yuzaga keldi.



Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida er yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur etkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: “Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda. Muayyan geografik hududning o'ziga xos iqlimi, ijtimoiy-ekologik, etnografik xususiyatlari tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar karakterini belgilab beradi. Ekologik xavf bugungi kunda tobora keng tus olib, er yuzidagi barcha mamlakatlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Jahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londoning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon dunyoda yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52 foiz (havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76 foiz, yer usti va suvda kun kechiradiganlar soni 39 foiz) qisqargan. Har yili 11 million gektar tropik o'rmon kesilmoqda. Yo'qotishlar o'rmonlarni tiklash ishlariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilishi dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda. Havo tarkibida karbonat angidridning oshishi, chiqindi gazlarning me'yorida ortiq havoga chiqarib tashlanishi oqibatida issiqxona effekti hosil bo'lib, bugungi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solayotgan jiddiy ekologik muammo — global iqlim o'zgarishi yuzaga keldi. SHuningdek, ozon qatlamining yemirilishi, dunyo okeanining ifloslanishi, tuproq unumdor qatlamining yo'qolib borishi, tropik o'rmonlarning kesilishi, cho'llanish, chuchuk suv manbalari va bioxilmaxillikning kamayishi, maishiy chiqindilarning ko'payishi, kimyoviy va toksik moddalarni zararsizlantirish kabi ekologik inqirozlar allaqachon bir davlat chegarasidan chiqib, tom ma'noda global ekologik muammolarga aylandi.



Xulosa: Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda bo‘layotgan ekologik muammolarni yaralishiga har bir inson o‘z hissasini qo‘shmay qolmaydi. Kundalik hayotimizda ham suvni behuda isrof qilishimiz suv tanqisligiga olib kelmoqda. Shu sababli daryo, ko‘llarimizdagi suvlarining qurib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Atmosfera havosini o‘zgarib borishi ham dolzarb muammolardan biridir. Masalan: Sanoat korxonalarini rivojlanishi va maishiy chiqindilarning ko‘payishi, zararli gazlarning chiqishi ham ozon qatlamining yemirilishi va tuyniklarni hosil bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Ziyomammedov Ekologiya va ma’naviyat. - T.: Mehnat, 1997 b. 43
2. Sh.T.Otaboyev Inson va biosfera. - T.: O‘qituvchi, 1995 b 135
3. A.S.To‘xtayev Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. - Toshkent: O‘qituvchi, 1994 b 27-28
4. Alimov T L Rafikov AA Ekologiya xatolik saboqlari T 1991 b 61
5. Shodimetov Yu Ijtimoiy ekologiyaga kirish T 1991 b 120-121
6. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent “yangi asr avlodi” 2005 y. b 58

Research Science and  
Innovation House

